



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 03 | pp. 83-86 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### OLIY TA'LIM XIZMATLARI SOHASIDA SAMARALI FAOLIYATNI TA'MINLASHDA IQTISODIY MEXANIZMNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI



Norqulov Jaloliddin Saloxiddinovich

Reja-moliya bo'limi boshlig'i

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada oliy ta'lif tizimida ta'lif xizmatlarini iqtisodiy samaradorligini takomillashtirish, yangicha yondashuvlar orqali ularni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, muammo va yechimlari haqida fikrlar keltirilgan. Shuningdek, bugungi kunda ko'rsatilayotgan xizmatlar jarayonini samarali yechimlar orqali boshqarish, amaldagi me'yoriy hujjatlardagi kamchiliklar, ularni takomillashtirishning ahamiyati to'g'risida takliflar keltirilgan.

**Kalitli so'zlar:** samarali yechimlar, boshqaruv, nomarkazlashtirish, innovasion yondashuv, iqtisodiy o'sish, mablag'lar, ta'lif xizmatlari, imtiyozlar, kadrlar, rivojlantirish.

**Аннотация:** В данной статье представлены идеи повышения экономической эффективности образовательных услуг в системы высшего образования, совершенствования экономических механизмов их развития за счет новых подходов, обеспечения устойчивого экономического роста, проблемы и пути их решения. Также, высказываются предложения по управлению процессом оказания услуг через эффективных решений, недостатки действующих нормативных документов и важность их совершенствования.

**Ключевые слова:** управление, децентрализация, инновационный подход, экономический рост, средства, образовательные услуги, льготы, кадры, развитие.

**Abstract:** This article presents ideas for decentralization of management in the provision of educational services in higher education institutions through innovative solutions, improvement of economic mechanisms for their development, ensuring sustainable economic growth, problems and ways to solve them. The article examines proposals to ensure the financial stability of higher education institutions when providing services, managing the process of providing services through the adoption of innovative solutions, taking into account the shortcomings of current regulatory documents, and provides proposals on the importance of their improvement.

**Keywords:** management, decentralization, innovative approach, economic growth, funds, educational services, benefits, personnel, development.

Ta'lif xizmatlarini taqdim qiluvchilar - keng doiradagi fanlar bo'yicha ta'lif berish va kadrlar tayyorlashni ta'minlovchi muassasalar kiradi. Mazkur xizmatlar

maktablar, kollejlar, universitetlar, o'quv markazlari va shu kabi maxsus muassasalar tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu muassasalar foyda olish maqsadida tuzilgan xususiy yoki davlat tomonidan tashkil etilgan byudjet yoki byudjetdan mablag' oluvchi tashkilotlar va muassasalar bo'lishi mumkin. Bu muassasalar ta'lim berish bilan birga ta'lim oluvchilarga ovqatlanish, yotoq joy kabi qo'shimcha xizmatlar ham ko'rsatishi mumkin.

Odatda ta'lim xizmatlari - tushuntirish, o'rgatish, ko'rsatish, yo'naltirish va nazorat qilish orqali o'qituvchilar, murabbiylar yoki tegishli mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi.

Ta'lim xizmatlari turli xil sharoitlarda, masalan, ta'lim muassasalarida, ish joyida, uyda, shuningdek bevosita auditoriyalarda to'g'ridan-to'g'ri, yozishmalar, televizor, internet yoki elektron boshqa masofaviy o'qitish usullari kabi turli xil vositalar orqali olib boriladi.

Ta'lim muassasalari tomonidan taqdim qilinayotgan ta'lim xizmatlari turli toifadagi foydalanuvchilar uchun moslashtiriladi, masalan, maktabgacha ta'lim, maktab ta'limi, o'rta-maxsus ta'lim, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim va hokazo. Shuningdek, turli darajadagi foydalanuvchilar uchun ham, jumladan, to'liq sog'lom, aqliy rivojlanishida kamchiligi bo'lgan, eshitish yoki ko'rish organlarida zaifligi bo'lgan, jismoniy rivojlanishda kamchiligi bo'lgan foydalanuvchilar shular jumlasidandir.

Ta'lim xizmatlari turi va ular kimlarga taqdim qilinayotganligiga qarab ta'lim beruvchilar (o'qituvchilar, murabbiylar, instruktorlar) tanlanadi. Kutilayotgan natijaga erishish uchun sifatlari ta'lim talab qilinishi sabab, yaxshi mutaxassis kadrlarni jalg qilish ham yaxshigina xarajatlarni talab qiladi. Bu asosan oliy ta'lim xizmatlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Oliy ta'lim xizmatlarini taqdim qiluvchilar va xizmatlardan foydalanuvchilarning ko'payishi, ta'lim xizmatlari uchun to'lovlar bozor konyukturasi asosida shakllanib borayotganligi - yaxshi mutaxassis kadrlarga talabni oshiradi. Bu esa o'z-o'zidan bir tomondan ta'lim xizmatlarini taqdim qiluvchilar tomonidan yetuk kadrlarni tanlab olish zaruriyatini keltirib chiqarsa, ikkinchi tomondan kadrlarda ham ta'lim xizmatlarini taqdim qiluvchilarni tanlash imkonini qoldiradi. Xuddi shunday, oliy ta'lim muassasalariga ta'lim xizmatlaridan foydalanuvchilarni ko'proq jalg qilish uchun ta'lim sifati, yaratilgan sharoitlar, imtiyozlar va asosan ta'lim xizmatlarining sifati muhim ahamiyat kasb etsada, ta'lim xizmatlaridan foydalanuvchilarning tanlovlari hal qiluvchi rol o'ynaydi. Buning uchun oliy ta'lim xizmatlarini taqdim qiluvchilarda bozor konyukturasiga moslashish uchun yetarli vakolatlar mavjud bo'lishi zarur va bu vakolatlar oliy ta'lim muassasalariga xodimlarning ish haqlarini erkin belgilashi va rag'batlantirish mexanizmini bozor konyukturasi va ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib belgilashlarida erkin ko'rinishda bo'lishi shart. Albatta oliy ta'lim xizmatlarini taqdim qilishda, davlat aralashuvi va har qanday ta'sir rag'bat ko'rinishida bo'lishi zarur.

Bugungi kunda davlat oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilarning oylik maoshlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Respublika oliy ta'lim muassasalari xodimlari mehnatiga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to'g'risida" 2008 yil 1 avgustdagagi 164-sont qarori bilan tasdiqlangan miqdorlarda hisoblanadi. Bu miqdorlar bir xil lavozimdagisi, bir xil ilmiy daraja va bir xil ilmiy unvonga ega professor-o'qituvchilar uchun bir xil belgilangan. Bu miqdorlar

respublika bo'yicha professor o'qituvchilar oladigan oylik maoshlarining eng kam miqdorlarini belgilaydi. Oylik maoshlarning belgilangan miqdorlardan ortiqcha qismi esa turli xildagi ustamalar ko'rinishida amalga oshiriladi. Ustamalar davlat byudjeti hisobidan va oliy ta'lim muassasalarining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan belgilanishi mumkin. Ustamalarni belgilash ham respublika bo'yicha turli ko'rinishlarda bo'lishi bilan birga miqdoriy jihatdan chegaralangan. Davlat oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilarni rag'batlantirish mexanizmi davlat byudjeti mablag'lari va oliy ta'lim muassasalarining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan chegaralangan tarzda amalga oshiriladi. Jumladan, **davlat byudjeti mablag'lari hisobidan** xorijiy tilni bilish darajasini belgilovchi sertifikatlar uchun 50 foizgacha, ilmiy yo'nalishdagi ishlari uchun 30 (60) foizgacha, **oliy ta'lim muassasalarining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan** professor-o'qituvchilarning faoliyati davomida boshqa erishgan yutuqlari va ta'lim tizimiga qo'shgan hissalari uchun 100 foizgacha bo'lgan miqdorda rag'batlantiriladi. Ustamalar professor-o'qituvchilarning bazaviy oylik maoshlariga nisbatan foizlarda hisoblanadi.

Yuqoridagilardan ko'rinish turibdiki, moliyaviy mustaqil bo'lмаган davlat oliy ta'lim muassasalarida kadrlarni rag'batlantirish miqdorlari erishilgan ma'lum bir natijadan keyin amalga kiritiladi va miqdor jihatidan chegaralangan. Shu sababdan bu ko'rinishdagi rag'batlantirish mexanizmi bugungi kundagi oliy ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi nodavlat oliy ta'lim muassasalari ko'payib borayotgan sharoitda yaxshi mutaxassis va yetuk kadrlarni jalb qilishga to'liq imkoniyat bermaydi. Chunki moliyaviy mustaqil va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarining aksariyatida professor-o'qituvchilar va boshqa mutaxassislarning oylik maoshlari birmuncha yuqori va rag'batlantirish tartiblarini belgilash o'z vakolatlarida. Bunda byudjet tashkilotlari bo'lgan oliy ta'lim muassasalarida kadrlarni saqlab turish imkoniyati tobora kamayib boraveradi.

Kadrlar tanlashning yana bir muhim jihat shundaki, davlat oliy ta'lim muassasalariga kadrlarni ishga qabul qilishda respublika bo'yicha yagona tartibga amal qilinadi. Ya'ni, biror bir lavozimga ishga olish uchun xodim o'sha lavozim uchun belgilangan malaka toifasi, ma'lumot darjasasi va boshqa ko'rsatkichlarga ega bo'lishi shart. Misol uchun xalqaro tan olingan, biroq respublikaning biror-bir me'yoriy xarakterdagi hujjatlarida belgilanmagan sertifikat yoki biror bir shu ko'rinishdagi xodimning mutaxassisligi bo'yicha darajasini belgilovchi hujjat xodimni ishga olishga asos bo'la olmaydi, ya'ni uning hujjati uning bilim darajasini belgilasada, ma'lumot darjasasi to'g'ri kelmasa ishga qabul qilinmaydi. Nodavlat oliy ta'lim muassasalarida esa bu kabi malaka talablari chetlab o'tilib, amalda haqiqiy dars bera oladigan yoki boshqa bir ishni bajara oladigan mutaxassisni ishga olish imkoniyati mavjud. Bu holatda ham davlat oliy ta'lim muassasalari yaxshi mutaxassisni jalb qilishda cheklowlarga duch keladi. Bu esa ular faoliyatining keyingi bosqichlarida salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Ya'ni, ta'lim xizmatlaridan foydalanuvchilarning kamayib borishi bilan tushumlarning kamayishi, natijada moddiy-texnik baza va kadrlarni saqlab turish xarajatlarining pasayib borish holatlari.

Bu esa o'z-o'zidan yana mazkur oliy ta'lim muassasalarining davlat byudjetiga moliyaviy qaramligini oshirib boraveradi. Natijada boshqaruv xodimlari, xizmat ko'rsatuvchi xodimlar, professor-o'qituvchilar va boshqa xodimlarda ham o'z vazifalarini

to'laqonli bajarmasliklari, doimiy ko'proq daromad keltiradigan ish joylarini izlashlari kabi holatlar yuzaga kelishni boshlaydi.

Kelajakda davlat oliv ta'lim muassasalarining bozor sharoitida iqtisodiy tanazzulga duch kelmasliklari, faqat davlat byudjeti mablag'lariga qaram bo'lib qolmasliklari, yetuk mutaxassis kadrlardan ayrilib qolmasliklari va bir so'z bilan aytganda iqtisodiy barqaror bo'lishlari uchun markazlashgan qarorlar qabul qilishda innovation yechimlarni qo'llash dolzarb bo'lib boraveradi. Chunki bugungi kunda oliv ta'lim tizimida turli imtiyozlar bilan ko'payib borayotgan xususiy oliv ta'lim muassasalari bilan davlat oliv ta'lim muassasalarining raqobatda sinib ketmasliklari uchun ma'lum bir chora-tadbirlarni amalga oshirish muhimdir.

Quyida keltirilgan takliflar mazkur masalalarga yechim bo'la olishi mumkin:

- oliv ta'lim muassasalarini davlat byudjetidan moliyalashtirishda yo'naliishlar bo'yicha talaba soniga nisbatan moliyalashtirish va shu bilan birga moliya yili uchun daromadlar va xarajatlar smetalarini tuzishda markazlashgan normativlardan voz kechib, natijaga yo'naltirilgan moliyalashtirishga o'tish;

- mehnatga haq to'lash miqdorlarini xodimlar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarning ko'lami, ish hajmi va natijadorligiga qarab xodimlarni samarali ishslashga undaydigan o'zgaruvchan ish haqi miqdorlarini joriy etish, markazlashgan tartiblardan voz kechib, xodimlarni rag'batlantirish mexanizmini har bir oliv ta'lim muassasasining ixtiyoriga o'tkazish;

Yuqorida ko'rsatilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi respublikamiz oliv ta'lim tizimida sezilarli ijobiy o'zgarishlarga olib kelishi va oliv ta'lim muassasalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilishiga ishonamiz.

#### **Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24-dekabrdagi "Davlat oliv ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-60-son qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24-dekabrdagi "Davlat oliv ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-61-son qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11-iyuldagagi "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4391-son qarori.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11-iyuldagagi "Oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5763-son farmoni.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 3-dekabrdagi "Oliy ta'lim muassasalarini bosqichma-bosqich o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazish to'g'risida"gi 967-son qarori.

6. <https://ndipzir.org.ua/wp-content/uploads/2018/04/Ostapenko.pdf>. FINANCIAL AUTONOMY OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS